



MAIN DIRECTIONS FOR INCREASING THE SOCIAL AND POLITICAL ACTIVITY OF YOUTH IN THE CONDITIONS OF MODERNIZED SOCIETY

Dilshoda Abdiyeva

Researcher, Department of Pedagogical Education

National University of Uzbekistan

E-mail: d.abdiyeva@mail.ru

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: flash mobs, political activism, communication, political parties, trade unions, digital technologies, social networks, web.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article argues that digital technologies are fundamentally changing the perception of citizens about their participation in politics and their ability to influence political decisions, that digitalization contributes to the optimization of human resources and participation in politics in new forms, and that informatization and modern information tools have a positive impact on the economy, politics, the introduction of advanced technologies, and the increase in the intellectual potential of society, as well as the intensification of the struggle for information space, the information-psychological impact on a person. Researched issues related to the expansion of transportation capabilities in the country.

ZAMONAVIY JAMIYAT SHAROITIDA YOSHLARNING IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Dilshoda Abdiyeva

O'zMU "Pedagogik ta'lim" kafedrası tadqiqotchisi

E-mail: d.abdiyeva@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: fleshmoblar, siyosiy faollik, qayta aloqa, Siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, web tarmoq.

Annotatsiya: Mazkur maqolda raqamli texnologiyalar fuqarolarning siyosatdagi ishtiroki va uning siyosiy qarorlarga ta'sir qilish qobiliyati haqidagi tasavvurini tubdan o'zgartirib yuborishi, raqamlashtirish inson

resurslarini optimallashtirishga va siyosatda yangi shakllarda ishtirok etishga yordam berishi, shuningdek, axborotlashtirish va zamonaviy axborot vositalari iqtisodiy, siyosiy sohalarga, ilg'or texnologiyalarning joriy qilinishiga, jamiyatning intellektual salohiyati oshishiga ijobiy ta'sir o'tkazish bilan birga axborot maydoni uchun kurashning kuchayishiga, insonga axborot-psixologik ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining yanada kengayishiga oid masalalar tadqiq qilgan.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ МОДЕРНИЗИРОВАННОГО ОБЩЕСТВА

Дилшода Абдиева

Исследователь кафедры «Педагогическое образование»

Национальный университет Узбекистана

E-mail: d.abdiyeva@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: флешмобы, политический активизм, коммуникация, политические партии, профсоюзы, цифровые технологии, социальные сети, интернет.

Аннотация: В данной статье утверждается, что цифровые технологии коренным образом меняют восприятие гражданами своего участия в политике и способности влиять на политические решения, что цифровизация способствует оптимизации человеческих ресурсов и участию в политике в новых формах, и что информатизация и современные информационные инструменты оказывают положительное влияние на экономику, политику, внедрение передовых технологий и повышение интеллектуального потенциала общества, а также на усиление борьбы за информационное пространство, информационно-психологическое воздействие на человека. Исследуются вопросы, связанные с расширением транспортных возможностей страны.

Kirish. Jamiyat hayotining yangi sohalarini, jumladan, siyosiy sohani raqamlashtirishni keng qamrab olish masalasi, ayniqsa, ushbu sohaga o'ta sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki unda ijtimoiy rivojlanishning ustuvor asoslari va yo'nalishlari belgilanadi. Siyosiy sohaga yangi texnologiyalarni jadal joriy etish, shubhasiz, katta ijobiy salohiyatga ega, chunki u:

1) jamiyatdagi siyosiy faollik darajasining oshishiga;

2) siyosiy qarorlar qabul qilishda jamiyatning haqiqiy ta'siri uchun ko'proq mexanizmlarni yaratishga;

3) siyosiy boshqaruv tizimidagi "qayta aloqa" darajasiga, uning axborot mazmuni va vakillik darajasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishga;

4) hokimiyat uchun kurashayotgan ko'plab guruhlariga jamiyatning turli qatlamlari manfaatlarini ifoda etish uchun kurashda qatnashish imkoniyatini berish orqali siyosiy raqobat darajasini oshirish kabi masalalarga hissa qo'shishi mumkin.

Bu borada elektron ovoz berish texnologiyalarini joriy etish (jumladan, masofaviy shaklda), elektron murojaatlarni yuborish uchun rasmiy axborot resurslarini yaratish, qonun loyihalarini jamoatchilik muhokamasiga qo'yish uchun maxsus internet-platformalarni joriy etish, jamoat tashabbuslarini ilgari surish uchun internet-resurslarni yaratish va boshqalar juda muhim sanaladi.

Masalaning salbiy jihatlarini ham e'tiborga olish zarur. Eng keskin muammo – bu jamoatchilik fikrini chetdan turib manipulyatsiya qilishdir. Virtual makonda ijtimoiy-siyosiy hayotni buzib qo'rsatish uchun "bot"lardan va boshqa mexanizmlardan foydalanish orqali axborot oqimini nazorat qilishni murakkablashtirishi va jamoatchilik fikriga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar foydalanuvchilarning faqat kichik bir qismi siyosiy jihatdan yaxshi ma'lumotga ega ekani va virtual makondan foydalanish qoidalarini bilishini hisobga olsak, ushbu muammo nafaqadar xavfli ekanini tushunamiz. Jamiyatdagi siyosiy jarayonlarda raqamli texnologiyalar orqali ishtirok etish mexanizmlari va tartiblarining noaniqligini ko'rsatuvchi yana bir murakkab muammo – bu "elektron siyosiy ishtirok" natijalariga noqonuniy o'zgartishlar kiritish ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash masalasidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Internet texnologiyalarining katta ijtimoiy hayotga kirib borayotgan yoshlarga ta'siri masalalari K. Doych, D. Iston, G. Almond, Dj. Koulman, L. Pay, U. Shramm, T. Adorno, G. Markuze, Yu. Xabermas, M. Xorkxaymer, G. Shiller, Kactelc, M. Maklyuen, Ye. Masuda, E. Toffler singari olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Global axborot makonida axborotning sivilizatsiyalarga ta'siri, ularning namoyon bo'lish xususiyatlari borasida G.Lassuel, D.Bell, Z.Bjezinskiy, P.Druker, M.Kastels, M.Porat, Y.Masuda, T.Stouner, R.Kats, R.Robertsonlar tadqiqotlari amaliy ahamiyatga ega. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini davlat boshqaruvi va davlat xizmatlari ko'rsatishning barcha sohalariga joriy etish, ijtimoiy-siyosiy hayotiga axborot xizmatlarini qo'llash, «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini yaratishga oid falsafiy tadqiqotlar O. F. Fayzullaev, M. N. Abdullaeva, R. M. Imomalieva, K. J. Tulenova, Z.D. Davronov, E. M.

Izzetova, N.A. Shermuhamedova, Sh. S. Kushakov, M. A. Usmonova, M. Yoqubova, G. G'afforova kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Masalani chuqurroq o'rganilsa, bu yerda ma'muriy resurslarni suiiste'mol qilish xavfi mavjud ekanligini ko'rish mumkin, chunki ular muayyan siyosiy maqsadlarni ko'zlagan tor doiradagi odamlar qo'lida to'plangan bo'ladi. Ushbu muammoni bartaraf etish juda qiyin kechishi mumkin, chunki hukumatning mazkur resurslar ustidan nazorati zaiflashuvi tashqi aralashuvi xavfini yanada kuchaytiradi. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bunday xavf davlat tomonidan virtual muhit nazorat qilinganda ham saqlanib qoladi, chunki yagona bir davlatning o'zi Internet maydonini to'la-to'kis nazorat qila olmaydi. Buning sababi, Internetda muayyan hududiy makonga to'g'ri keladigan aniq hududiy demarkatsiya yo'q. Ta'kidlash joizki, bu borada ba'zi horijiy mamlakatlar o'z hududlarida axborot makonini kuzatishga harakat qiladilar.

Shu o'rinda mazkur xavfga qarshi qanday vositalarni qo'llash maqsadga muvofiq, degan savol paydo bo'ladi. Avvalambor, virtual muhitga me'yoriy cheklovlar kiritish, ma'lumotlarni tekshirish va filtrlashni ta'minlaydigan xavfsizlik dasturlaridan foydalanish, geolokatsiya texnologiyalaridan foydalanish (bu zararli materiallar va nomaqbul saytlarni to'sib qo'yish imkonini beradi), axborot xavfsizligini ta'minlovchi milliy dasturlarini yaratish va ularni amaliyotda qo'llash.

Yuqoridagi tavsfiyalarni e'tiborga olgan holda, raqamli texnologiyalarni siyosiy jarayonga, xususan, siyosiy ishtirok etish jarayoniga ob'yektiv baho beradigan bo'lsak, unda bir nechta xulosalarni paydo bo'lishi mumkin.

Birinch, siyosiy sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish muqarrar jarayon va u faqat sur'at jihatdan o'sishi mumkin. Axborot texnologiyalarining rivoji, ularning yangi xillari kuchayishi va ulardan siyosatda kengroq foydalanish holati yuzaga keladi.

Ikkinchi, raqamli texnologiyalardan foydalanish siyosatda ishtirok etuvchi an'anaviy institutlarini raqamli texnologiyalar bilan to'liq almashtirish degani emas. Kun tartibidagi asosiy masala – siyosatda ishtirok etuvchi institutlarni raqamlashtirish orqali ular faoliyatini takomillashtirishdir. Ammo bu, o'z navbatida, raqamli texnologiyalarga asoslangan mutlaqo yangi siyosiy ishtirok shakllarini o'rnatishni ham istisno qilmaydi.

Uchinchi, siyosiy jarayonlarda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash natijasida ovoz berish, shikoyat qilish, qonun loyihalarini muhokama qilish va hokazolar sarhisob qilishda

shaffoflik va xolislik masalasi keskinlashadi. Mazkur masala samarali hal qilinmasa, qabul qilingan qarorlarni qonuniylashtirishda jiddiy qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

To'rtinchi, siyosatda ishtirok etish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'ta jiddiy xavf va tahdidlarni nazarda tutadigan bo'lsak, bu yo'nalishda davlatlardan axborot xavfsizligini ta'minlash, siyosiy ishtirok natijalariga har qanday buzg'unchi tashqi ta'sirlarning oldini oluvchi choralarni amalga oshirish talab etiladi.

Beshinchi, virtual makondan bemalol axborot olish imkoniyati jamiyat tomonidan hokimiyat haqidagi tasavvurni tobora o'zgartirmoqda: jamiyat hokimiyatga, uning samaradorligi va ochiqligiga talabchanroq bo'lib bormoqda. Bu holatda mavjud hokimiyat va siyosiy tizimni xorijiy siyosiy tizimlar va ularning faoliyatidagi muvaffaqiyat bilan solishtirish muhim rol o'ynaydi.

Oltinchi, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa ommabop virtual maydonlar orqali ma'lumotni tez tarqatish imkoniyati hokimiyatdan nafaqat jamiyatning hozirgi siyosiy jarayonga bo'lgan munosabatini doimiy kuzatib borishni, balki bunday fikr-mulohazalarga tezroq javob berishni talab etadi. Bundan tashqari, javobda nafaqat axborot sohasidagi eng dolzarb va qizg'in muhokama qilinayotgan muammolarni hal qilish bo'yicha real choralarni qo'llash, balki axborotning mazmuni va shaklini muqobil talqin etish talab etiladi.

XXI asr boshlarida Gruziya, Ukraina va Qirg'iziston kabi mamlakatlarda "rangli inqiloblar" sodir bo'ldi va ushbu jarayonlarda yoshlar harakatlantiruvchi kuchlardan biri sifatida faol harakat qildi. O'zbekistonda bunday holatlar yuzaga kelmasligi uchun hukumat tomondan ularning oldini olish choralari ishlab chiqish talab etiladi. 2000 yillarning o'rtalaridan boshlab, yoshlar siyosati va uning yo'nalishlaridan biri – yoshlar tashkilotlari bilan ishlashga alohida e'tibor berildi.

Xususan, bu borada O'zbekistonda yoshlar – xalqning asosiy tayanchi va suyanchi ekanligi, keng ko'lamli islohotlarning ro'yobga chiqaruvchi asosiy kuch ekanligi alohida e'tirof etilmoqda. Jumladan, yoshlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallash masalalari bo'yicha qator davlat dasturlari ishlab chiqildi. Shu o'rinda "2021 yilning "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili", deb e'lon qilingani buning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi" [1].

Raqamli texnologiyalar fuqarolarning siyosatdagi ishtiroki va uning siyosiy qarorlarga ta'sir qilish qobiliyati haqidagi tasavvurini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Raqamlashtirish inson resurslarini optimallashtirishga va siyosatda yangi shakllarda ishtirok etishga yordam beradi. Siyosat uchun ommaviylik xususiyati muhimdir, faqat shundagina

hokimiyat tepasida turgan guruhlar emas, balki aholining keng qatlamlari maqsad-rejalarini ro'yobga chiqarish mumkin. Aynan ommaviy siyosat jamiyat manfaatlarini amalga oshirish jarayonida davlatga tegishli ta'sir ko'rsata oladi. Shu boisdan ham fuqarolarni siyosiy hayotga jalb qilish uchun safarbarlik masalasiga e'tibor qaratish zarur, bu esa, o'z navbatida sub'yektlarning motivatsiyasi, maqsadlari va resurslari bilan bog'liqdir.

Siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalari faoliyati bilan bog'liq an'anaviy safarbarlik shakllari uning yangi shakllari prinsipilariga muayyan darajada zid. Odamlar ommaviy tadbirlarda, ko'pincha siyosiy tashkilotlarning da'vati bilan emas, balki onlayn kommunikatsiya tufayli qatnashadilar.

Fuqarolarni siyosatga keng jalb qilish masalasiga "raqamli makon" deb nomlangan ijtimoiy nazoratning yangi shakllari yordam bermoqda. "Raqamli axborot texnologiyalarining keng tarqalishi tufayli, - deyiladi "2019 yilda Davos iqtisodiy forumining hisobotda, – biz "raqamli dunyo"ga kirib bormoqdamiz, "raqamli dunyoda" esa, barchamiz haqidagi ma'lumotlar sun'iy intellekt algoritmlari yordamida to'planadi, saqlanadi va tekshiriladi. Olimlar, ekspertlar va siyosatchilar e'tibor qaratayotgan raqamli boshqaruvning xavfliligi allaqachon real voqeaga aylangan. Ommaviy va siyosiy amaliyotda "raqamli totalitarizm" atamasi paydo bo'ldi, bu videokameralar, gadjetlar, raqamli dastur-illovalar, sun'iy intellekt dasturlari yordamida odamlarning xulq-atvori va jamiyatda o'z mavqeini yanada oshirish borasidagi raqamli boshqaruvni anglatadi" [2].

Raqamli siyosiy ishtirokni yangi avlodning jamiyatda paydo bo'layotgan siyosiy muammolarga javobi sifatida talqin etish mumkin. Bu, ayniqsa, katta miqdordagi aholini qamrab oladigan onlayn muhitda muloqotning yangi shakllari bilan bog'liqdir.

Masalan, "Brand Analytics tahliliy tizim ma'lumotiga ko'ra" [3], 2019 yil noyabr oyida Rossiya Federatsiyasida ijtimoiy tarmoqlar ishtirokchilari soni 49 million kishini tashkil etdi. Ular 1,3 milliard ochiq xabarlar (postlar, repostlar, sharhlar) yozishgan. Zamonaviy ommaviy kommunikatsiyada "xashteg faollik" (hashtag activism) tobora ommaviylashib bormoqda, uning sababini esa, jamiyat hayotidagi muayyan voqea va hodislarga befarq bo'lmagan odamlarning o'z munosabati va qarashlarini jamoatchilikka ma'lum qilishi istagi bilan bog'lash mumkin. "xashteg faollik" atamasi ommaviy axborot vositalari tomonidan kiritilgan bo'lib, bu atama xashteglar, ya'ni maxsus belgilar yordamida Internetdagi faollikni (layklar, sharhlar, repostlar, nashrlar, siyosatlashgan Internet -resurslarga obuna bo'lish va h.k.) anglatadi.

Internet-resurslar tezkor fikr almashish, voqealarga tezkor munosabat bildirish, vaziyatning mafkuraviy ahamiyatini ta'kidlaydigan tasvir va ramzlardan foydalanishda keng imkoniyat bera oladi. "Belgiyalik sotsiolog Jon Blommertning so'zlariga ko'ra" [4], bunday his-tuyg'ularga

ega odamlarni xashteglar orqali adolatsizlikka qarshi chiqqanlar bilan birlashtirish va ko'chalarga olib chiqish mumkin. Ta'kidlash joizki, yoshlarning siyosiy hayotda ishtirok etish shakllari muttasil o'zgarib bormoqda. J. Teoxaris zamonaviy siyosiy hayotda ishtirok etishning eng ko'p tarqalgan shakllari orasida ijtimoiy tarmoqlar va mikrobloglarni alohida ajratib ko'rsatadi. Buyuk Britaniyalik tadqiqotchining fikricha, "raqamli ishtirokni siyosiy faoliyat deb talqin qilish mumkin emas, lekin siyosiy maqsadli harakat ixtiyoriy ravishda sodir etilgan va siyosiy voqealar haqida xabardorlikni oshirishga qaratilgan, demak biz bu yerda siyosiy ishtirok haqida gapirayapmiz" [5].

"J. Teoxaris va J. Van Det raqamli "siyosiy ishtirok" atamasini siyosiy faoliyatning zamonaviy shakllarini tavsiflash uchun ishlatadilar; ular raqamli platformalarda murojaatnomalarni imzolash, ijtimoiy tarmoqlardagi faollik, mikrobloglar, podkastlar – audio yoki videofayllarni yaratish va tarqatish kabi jarayonini o'z ichiga oladi. Raqamli siyosiy ishtirokning shakllaridan biri – elektron ariza berish. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ommabop nodavlat raqamli platformalar orqali onlayn-murojaatlar qilish siyosiy qarorlar qabul qilishga ta'sir qiladi. Bir qator xorijiy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra" [6], raqamli siyosiy ishtirokning passiv shakllariga slaktivizm kiradi. Bu raqamli vositalardan foydalangan holda siyosiy yoki ijtimoiy maqsadni qo'llab-quvvatlash amaliyoti va bu juda kam mehnat va majburiyat talab etadi. Slaktivizm jamiyat hayotida, ayniqsa siyosatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini beradigan zamonaviy raqamli vositalar to'plami sifatida qaraladi. "Shu tariqa jamiyatni raqamlashtirish sharoitida siyosiy voqelikka moslashuvchan onlayn mobilizatsiyaning yangi turlari paydo bo'lmoqda" [7]. Xorijiy tajribani o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, davlatlar zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini inson, jamiyat va davlat ehtiyojlariga moslashtirish masalasiga katta e'tibor qaratmoqda. Zero, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodni raqamlashtirishning muhim omilidir. Bundan tashqari, innovatsion imkoniyatlardan ham shaxs manfaatlari uchun, ham davlat manfaatlari uchun foydalanish mumkin. Insonning jamiyat sohalarida o'z imkoniyatlarini namoyon qilish shart-sharoritlari yaratilsa, ushbu jamiyatning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Global internet tarmog'i yordamida yaratilgan yangi ijtimoiy sharoit tufayli siyosatda namoyon bo'layotgan faollik subaktivizm, ya'ni tabiat va jamiyatning ob'yektiv qonunlari mavjudligini inkor etuvchi dunyoqarash yoki mikroaktivizmga aylanadi. Internet global miqyosda muloqot qilish va fikr bildirish imkoniyatini yaratishiga qaramay, hozirgi foydalanuvchilarning diqqat-e'tibori mahalliy darajadagi muammolarga qaratiladi. Ularga muayyan hududga xos muammolar haqidagi ma'lumotlar berib boriladi.

“Internet, xususan, ijtimoiy tarmoqlar, insonning o‘z siyosiy-ijtimoiy faoliyatini namoyon etish borasida yangi shakllarni yaratdi, bu: xalq jurnalistikasi, fuqarolik monitoringi, ijtimoiy mediada norozilik harakatlarini tashkil etuvchi faollar va boshqalar” [8]. Tadqiqot ishlarida global tarmoqning insonning dunyoqarashi va xatti-harakatlariga turli qarashlarni kuzatish mumkin. Ba’zi tadqiqotchilar Internet insonning siyosatda ishtirok etish darajasini pasaytiradi va ijtimoiy birdamligini zaiflashtiradi, degan nuqtai nazarni ilgari surishsa, boshqalar Internet fuqarolarning siyosatda faol ishtirok etishiga yordam beradi, degan fikrni asoslashga harkat qiladi. Yana kimlardir, Internetning siyosiy ishtirokga ta’siri haqidagi masala to’liq o’rganilmagan, deb hisoblaydi. Shu o’rinda, Internetning insoni faoliyatining qaysi turiga ta’sirini aniqlashtirish kerak: faqat Internetdagi faoliyatgami yoki faqat uning an’anaviy shakllarigami?

Web tarmoqning ikkinchi avlodining, ya’ni onlayn kontent foydalanuvchilarining o‘zlari yaratadigan saytlar turining paydo bo‘lishi maxsus kontent ishlab chiqaruvchilar va tarqatuvchilar davrini boshlab berdi. Dastlab ular bloggerlar edi va aynan bloggerlar an’anaviy ommaviy axborot vositalariga qaraganda yaxshiroq ma’lumot manbalariga aylandi. “Ijtimoiy tarmoqlar siyosiy bilim olish, siyosat va siyosatchilarga munosabatni shakllantirish va aholi e’tiborini jamiyatdagi mavjud muammolarga qaratish uchun faol ishlatilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar jamoa bo‘lib birga harakat qilish, maqsadlarni muvofiqlashtirish uchun siyosiy tarmoqlarni shakllantirishga yordam beradi va odamlarni siyosiy faoliyatda ishtirok etishga undovchi sabablarni asoslaydi” [9], deb hisoblaydi soha eksperti - S. Valensuela (Chili).

Bu yerda muhimi, shuni tushuna bilish kerakki, hozirda zamonaviy ijtimoiy munosabatlar tarmoqlari o‘zlarini jamiyatdan ustun, deb hisoblaydigan har qanday tuzilmalar, siyosatchilar tomonidan nazorat qilinadigan ob’jekt emas. Tarmoq madaniyatini shakllantirish mexanizmlari an’anaviy ierarxik mexanizmlardan sifat jihatidan farq qiladi. Tarmoq madaniyati shakllanishida fuqarolarning faol ishtiroki zarur.

Raqamli tarmoq texnologiyalari va amaliyoti ular an’anaviy madaniy shakllar va institutlari talablariga zid keladi. Oqibatda, bu orqali siyosiy tafakkur va ijtimoiy-siyosiy o‘zaro ta’sir tamoyillari yangicha tus olmoqda.

Buni “Arab bahori”dan boshlab, yillar davomida, biz u yoki bu joydagi (Venesuela, Eron, Belarusiya va boshqalar) real makonda qanday amalga oshirilayotganini va ijtimoiy va siyosiy hayotning eng muhim omiliga aylanganini empirik tarzda kuzatishimiz mumkin. .

Siyosiy munosabatlar tizimiga global raqamlashtirishning joriy etilishi natijasida siyosiy institutlar faol transformatsiya bosqichiga o‘tdilar. Raqamlashtirish har xil ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini, ularning joylashuvidan, yoshidan, daromadidan va boshqalardan qat’i nazar erkin

ifodalash imkonini berdi, bu esa o'zligini namoyon qilishning yangi usullari ustun bo'lgan yangi identifikatsiyani shakllantirishning asosiy omiliga aylandi. Zamonaviy media texnologiyalari tufayli fuqarolik faolligi yangi ifoda shakllarini egallamoqda. Yosh avlod raqamli identililikning ilg'or turi sifatida yangi amaliyotlarni yoyuvchi bo'lib xizmat qilmoqda va fuqarolar xohish-irodasi ifodalovchi eng faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Yoshlar o'ziga xos psixologiyaga ega ekani tufayli qat'iy norozilik his-tuyg'ularga berilishga, muayyan kamchiliklarni keskin tanqid qilish va bunda kimnidir ayblash moyil bo'ladi. Yosh avlodning ijtimoiy tarmoq makoniga faol darajada jalb qilinganligi sababli, virtual makonni fuqarolik tashabbuslarini shakllantirish maydoni sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Raqamli makonda buzg'unchi faoliyatning yangi amaliyoti – siyosiy safarbarlik orqali ijtimoiy tarmoqlar yordamida norozilik harakatlarini shakllantirishdir. Fikrlari bir-biriga mos keladigan guruhlarini tashkil qilish uchun turli mavzularda tashkil etilgan platformalarda tegishli muloqot muhiti yaratiladi; shu muhitda uzun-yuluq va bir necha qismlarga bo'lingan, dalillar bilan asoslanmagan axborotlar tarqatiladi va ularga siyosiy tus beriladi. Keyingi bosqichda esa, virtual makon a'zolari namoyishlarni o'tkazishga da'vat etiladi, shundan so'ng buzg'unchi kayfiyatni “ushlab turish” ishlar raqamli makonda davom ettiriladi; qisqa vaqt ichida “zukko olomon” (inglizcha smart mob) ijtimoiy tarmoqlar orqali to'planadi va ular faoliyatini boshqarib boriladi; bu amaliyot ko'pincha fleshmoblar (ingl. flash mob – bir zumda olomon to'plash) orqali amalga oshiriladi. Tarmoqda qadriyatlar va munosabatlarni amalga oshiruvchi agentlarni faollashtirish orqali, norozilik harakatida ishtirok etish muqaddas burch ekani targ'ib qilinadi va buzg'unchi g'oyalar ommalashtiriladi. Ya'ni fuqarolik ishtiroki an'anaviydan noan'anaviy siyosiy ishtirokga aylanadi, bu demokratik davlatlarning global tendensiyasini aks ettiradi.

Zamonaviy fuqarolik faolligi – nafaqat real hayotda, balki zamonaviy rivojlanish bosqichiga xos bo'lgan virtual makonda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlarning murakkab majmuidir. Fuqarolik faolligini tadqiq etishning zarurati nafaqat jamiyatining demokratlashtirilishi bilan, balki turli xil elektron aloqa vositalarining rivojlanishi bilan ham izohlanadi.

Virtual makonda kechayotgan fuqarolik faolligi jarayonlarini tadqiq etuvchi ekspertlar Internet, ijtimoiy tarmoqlar, turli saytlar va platformalar orqali yaratilayotgan ko'plab yangi faollik shakllarini ajratib ko'rsatmoqdalar. Masalan, ijtimoiy ahamiyatga molik muammolar bo'yicha forumlarda muloqot va munozaralar olib borish kabi faoliyat turlari Internetda ayniqsa keng ommalashgan. Shu bilan birga, Internetdagi fuqarolik faolligining asosiy qismi jamoaviy norozilik harakati shaklida namoyon bo'lmoqda. Milliy siyosatshunoslikda norozilikning mohiyati to'g'risida yagona tasavvur yo'q: nuqtai nazariga qarab, u bir tomondan noan'anaviy,

tizimli bo'lmagan va destruktiv xatti-harakatlar, ikkinchi tomondan, o'zgarishlar zaruratini aks ettiruvchi fuqarolik faolligining namoyon bo'lishi, deb atalmoqda.

Virtual makonda norozilik harakatining yangi-yangi shakllarining paydo bo'lishi bu hodisaga tobora ko'proq e'tibor qaratishni talab etmoqda. Norozilik bildirish va postlar qoldirish natijasida mavjud muammolarni bilish va bartaraf etishga har ikkala tomonga manfaat keltirmoqda. Bunda o'z navbatida assossiz postlar va noroziliklarni bildirayotganlarni inobatga olish zarur. Postlarda norozilik ishtirokchilari yoki uning tashkilotchilarining asosiy g'oyalari, maqsadlari, manfaatlarini bildiradi. Muammoga e'tiborni jalb qilish, hamfikir safdoshlarni jalb etish yoki ziddiyat ishtirokchilariga murojaat qilish virtual norozilikning asosiy xususiyatlari hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi norozilik xususiyatlarini o'rganishlar asosida, e'lon qilingan mavzuning o'zgarishi norozilik kampaniyasi turi va mavzusiga qarab, har xil yo'llar bilan amalga oshiriladi, degan farazni ilgari surish mumkin.

Norozilik mavzusini o'zgarish jarayonining quyidagi tasnifini ajratib ko'rsatish mumkin.

Juz'iy o'z o'zgarishlar. Mazkur jarayonda norozilik kampaniyasining mavzusi axborot maydonini uzoq vaqt davom etadi. Ta'kidlash joizki, bunday o'zgarish ko'pincha odamlarning shaxsiy muammolari bilan bog'liq bo'lgan va muayyan bir hudud odamlarni birlashtiradigan mahalliy noroziliklarga xos. Masalan, "Rossiyada firib yo'li olingan ko'chmas mulk investorlari uyushmalarining norozilik kampaniyasini misol qilib ko'rsatish mumkin" [10]. "VKontakte" ijtimoiy tarmog'ida aldangan ko'chmas mulk investorlarining huquqlari uchun kurashga oid bir hil mavzudagi xabarlar berib borilgan va boshqa mavzular bo'yicha juda kam sonli xabarlarni o'qish mumkin, lekin ular norozilik postlari emas, chunki ular maishiy mavzular, turli bayramlar bilan tabriklar va hokazolardan iborat.

Qisman o'zgarish. Ushbu o'zgarish turini katta norozilik kampaniyalarida kuzatish mumkin. Bu yerda birinchi kun e'lon qilingan ammo ko'p ko'rinishlar kiritilgan mavzu muhokama qilinadi. Bunday o'zgarishlarga misol qilib Rossiyada 2020 yilda bo'lib o'tgan norozilik harakatlarini keltirish mumkin. Ushbu tadbirlar doirasida asosiy mavzu, ya'ni koronavirus infeksiyasining tarqalishi bilan bog'liq cheklovlarni bekor qilish mavzusi o'zgarishsiz qoldi. Biroq, bu norozilik aholining keng qismini, biznes vakillari, talabalar, nogironlarni qamrab olganligi sababli asosiy mavzu qisman o'zgardi. Mavzudan qo'shimcha cheklovlarni olib tashlash, hokimiyatni tanqid qilish va Konstitutsiyaga o'zgartirishlar kiritish kabi masalalar o'rin oldi.

To'liq o'zgarish. Bu jarayon uzoq davom etayotgan norozilik kampaniyalari uchun xosdir. Ularda asosiy mavzu uzoq vaqt muhokama va vaqt o'tishi bilan ikkinchi darajali mavzularga

bo‘linib ketadi va ulardan biri ustuvor mavzuga aylanishi mumkin. Misol qilib, Rossiyadagi ekologik noroziliklarni keltirish mumkin: “Shies stansiyasi yaqinidagi axlatxona qurilishiga qarshi” [11], “Ribinsk suv-ombori yonida qog‘oz kombinati qurilishiga qarshi” [12] va “Baykal ko‘lida zavod qurilishiga qarshi” [13] norozilikdarni keltirish mumkin.

Xulosa va takliflar. Ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar matnlarini tahlil qilinganda norozilik mavzusi avvalgi ekologik rejimdan siyosiy mavzuga aylangani aniqlandi. Atrof-muhitga va aholi salomatligiga zarar yetkazmaslik masalasi mintaqaviy va federal hokimiyatni tanqid qilish, shuningdek, aholini norozilik namoyishlariga safarbar etishga o‘zgardi. Ijtimoiy tarmoqlarda bir mavzuning boshqasiga o‘zgarishini alohida tadqiq qilish ijtimoiy tarmoqlarda turli norozilik mavzularini tarqatish tamoyillari va qonuniyatlarini o‘rganish va eng radikal guruhlar va foydalanuvchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan muammolarni aniqlaga yordam beradi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://yuz.uz/file/newspaper/723d202ae9e43abfe6b21f3a335e4c83.pdf>
2. The Global Risks Report 2021. <https://www.weforum.org/reports/the-global-risks-report-2021>
3. Brand Analytics. Система мониторинга и анализа сообщений о бренде. <https://www.tadviser.ru/index.php>
4. Tribute: Jan Blommaert, a citizen sociolinguist. <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/josl.12492>
5. Жанна Теохарис –сиёсий фанлар бўйича хизмат кўрсатган профессор (Буюк Британия).
6. Мартынов, К. От slackтивизма к республике. Почему интернет-революции становятся реальностью / Логос. – 2012. – № 2. – С. 19–27.
7. Баранов Н. Цифровое политическое участие как форма политической мобилизации.
8. Формирование институционального механизма управления инновационной деятельностью. <http://elibrary.ru/item.asp?id%3D17090942>
9. Valenzuela, S., Kim, Y., & Gil de Zúñiga, H. Social networks that matter: Exploring the role of political discussion for online political participation. *International Journal of Public Opinion Research*, 2012. 24(2). 163–184. <http://dx.doi.org/10.1093/ijpor/edr037>.
10. “ВКонтакте” – “Обманутые дольщики Челябинск”(<https://vk.com/public108702296>)
11. https://vk.com/great__food, https://vk.com/ob_kotlas.

12. https://vk.com/stopcbk_volga, https://vk.com/stop_cbk.
13. <https://vk.com/public166386670>.